

## INGLIZ TILINI O`RGATISHDA CHET EL ADIBLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH

<sup>1</sup>Z. Jo`rayeva

Qo`qon davlat pedagogika instituti, o`qituvchi,

<sup>2</sup>H. Boymirzayeva

Qo`qon davlat pedagogika instituti, 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524302>

*“Yoshlarni qay usulda o`qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo`lishiga qayg`urish –har birimizning muqaddas burchimizdir.”*

*Islom Karimov*

**ANNOTATSIYA:** Tilga e`tibor – elga e`tibor deb bejiz aytilmagan. Chunki til butun millatning ruhi. Bugungi kunda milliy va xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishga bi`lgan e`tibor eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham ushbu maqolada ingliz tilini o`qitishda foydalaniladigan badiiy asarlar va adiblarning hayotidan foydalanish muhim rol o`ynaydi. Ushbu maqolada esa bu borada biroz fikr yuritilgan.

**KALIT SO`ZLAR:** til, o`qitish tizimi, badiiy adabiyot, xorijiy adabiyot, adiblar asarlari, modernizatsiya.

Bugun biz shunday zamonda yashamoqdamizki, bu davr pedagog mutaxassislardan yoshlarni nafaqat milliy qadriyatlar, balki zamon talabiga mos ravishda zamonaviy bilimlar ham qurollantirishni talab etmoqda. Zero, M.Behbudiy ham “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo`lur”, - deb ta`kidlab o`tgan. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov “Bugungi kunda, umumiy e`tirofga ko`ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo`q, albatta. Bunday sharoitda inson kapitaliga yo`naltirilayotgan investitsiya va qo`yilmalarning o`sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo`lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o`zining asosiy ustuvor yo`nalishlari qatoriga qo`yadigan davlatgina o`zini namoyon eta olishi mumkin”, deb ta`lim jarayoniga qo`yiladigan bugungi kun talablarini asosli ravishda isbotlab berganlar. Shunday ekan yurtimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o`rnini mustahkamlash o`qituvchilar oldiga xorijiy tillarni mukammal egallagan barkamol avlodni tarbiyalash masalasini ko`ndalang

qo`ymoqda. Shu maqsadda O`zbekiston chet tilini, ayniqsa ingliz tilini o`rganishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilgan “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi qarori ta`lim jarayonida xorijiy tillarni mukammal o`rgatishning qonuniy isboti sifatida namoyon bo`lmoqda .

Maktablarda ona tili va adabiyoti, madaniyat bilan birgaalikda ingliz tili va adabiyoti, madaniyati urf-odatlarini ham o`rgatilib kelinmoqda. Bu sohada ingliz yozuvchilari asarlaridan keng foydalanilmoqda .

Ingliz yozuvchisi Charlez Dikenz (Charles Dickens) 1812-yil 7-fevralda Angliyaning Portsmut (Portsmouth) shahrida Dikenzlar oilasida tug`ilgan. Dikenz o`z asarlarida XXI asrdagi ingliz jamiyatidagi ijtimoiy va ma`naviy hayotni yoritib bergan . Yozuvchining “The Pickwick Papers” (“Pikvik klubi qaydlari”), “Oliver Twist”, “ The life and Adventure of Nicholas Nickleby” (Nikolas Niklebining hayoti va sarguzashtlari”), “David Copperfield”, “Great expectations” (“Katta umidlar”) va boshqa asarlari juda ham mashhur.

Charlez Dikenzning “Katta umidlar” asari o`zbek kitobxonlari orasida mashhur asarlardan bo`lib, asarda Buyuk Britaniyaning XIX asrdagi ijtimoiy hayoti tasvirlangan. Asarda yozuvchi ingliz jamiyatidagi boylar va qashshoqlar o`rtasidagi tafovutlarni, sinflar o`rtasidagi kurashlarni hamda inson orzu-umidlari uni nimalarga qodir etishi mumkinligini va jamiyatdagi adolatsizliklarni keskin qoralaydi. Yozuvchi ushbu asarda butun voqelikni bolasining hayotga bo`lgan munosabatini bor jihati bilan tasvirlab bergan. Asarni o`qir ekanmiz, ba`zida lablarimizga shirin kulgu, ba`zida esa istehzoga limmo-lim tabassum baxsh etadi. Asar qahramoni Pipning tasavvuridagi hayot qanday bo`lsa , shundayligicha davom etishi kerak degan sodda g`oyasi uning asarining boshqa qahramonlari bilan uchrashishi natijasida o`zgarib boradi. Nihoyada Pip o`z fikrlarini o`zidagina qoldiradigan , jamiyat hayotidagi sodir bo`layotgan ishlarga fikr bildirmaydigan insonga aylanadi. Bu asar Pipning siymosida butun ingliz jamiyatida yashayotgan har qanday odam bilan sodir bo`lishi mumkinligini yozuvchi ko`rsatib berdi. Nafaqat Charlez Dikenz , balki boshqa ingliz adabiyoti vakillarining asrlarga muhrlangan minglab asarlari o`quvchilar qalbida o`chmas iz qoldiradi va insonni chuqur fikr yuritishga chorlaydi. Shunday ekan, o`zbek o`quvchilari ham bu buyuk yozuvchilarning asarlari bilan yaqindan tanishib chiqishlari hozirgi zamon talablariga mos ravishda ta`lim-tarbiya olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Rajapova, Malika. "LINGVOCULTUROLOGY AND ITS PECULIARITIES AS NEW BRANCHES OF CONTEMPORARY LINGUISTICS." *Scienceweb academic papers collection* (2021).
2. Malika, Rajapova. "EFFECTIVE WAYS OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ISSN: 2249-7137 Vol. 11." (2021).
3. Rajapova, M. *PRINCIPLES OF COGNITIVE METAPHOR AND ALLEGORY IN DISCOURSE. 2021.*
4. Boyquziyeva, G. X., and M. M. Jo'rayeva. "SOME FEATURES OF WOMEN'S SOCIAL ACTIVITIES IN UZBEKISTAN." *Open Access Repository* 8.12 (2022): 346-348.
5. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as" ethnos" and" nation" as social unit." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29.5 (2020): 1936-1944.
6. БОЙКУЗИЕВА, ГХ. "СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ." *Вопросы политологии* 11.2 (2021): 337-345.
7. БОЙКУЗИЕВА, ГХ. "СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ." *Вопросы политологии* 11.2 (2021): 337-345.
8. Ҳайдарова, Гулҳаё. "СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ." *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI* 6.6 (2021).
9. Ҳайдарова, Гулҳаё. "СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ." *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI* 6.6 (2021).
10. Аҳмадалиевна, Ҳайдарова Гулҳаё. "СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛИЁТИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИГА ДОИР." *Conferencea* (2022): 47-49.
11. Ҳайдарова, Гулҳаё. "СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ." *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI* 6.6 (2021).
12. Karimova, Vasila Vakhobovna, and Munisa Karimova. "ANALYSIS OF LEXICAL-SEMANTIC VARIANTS OF MEANS OF EXPRESSING THE MEANING OF INTIMACY IN THE FEMALE GENDER." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 1234-1238.
13. Karimova, Vasila Vakhobovna, and Munisa Karimova. "REASONING ON THE HISTORY OF THE STUDY OF KINSHIP TERMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11

(2022): 1227-1233.

14. Karimova, Vasila Vakhobovna, and Munisa Karimova. "SUPPLETIVISM OF THE LEXICAL PLAN IN THE TURKIC LANGUAGES (BASED ON THE TERMS OF KINSHIP IN THE UZBEK LANGUAGE)." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 1245-1249.